

JAMOLIDDIN AHMAD IBN MUHAMMAD IBN MAHMUD G'AZNAVIY HAYOTI VA IJODI

Lutfiddinova Hurshidabonu Abdujabbor qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Moturidiya ta'limotining Movarounnahrda tashqarida keng yoyilishiga ko'plab olimlar xizmat qilganlar. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy shunday olimlarning mashhurlaridan sanaladi. Tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Bu zot Huroson o'lkasida yashab faoliyat olib borgan. Toj al-Hanafiyy nomi bilan mashhur bo'lgan. "Usulud din" (din asoslari), "Aqoidul G'aznaviy" (G'aznaviy aqidalari) kabi asarlari bor. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy o'z davrida fiqh va usulul-fiqh bobida hanafiylarning yetakchi olimlaridan sanalgan. Mashhur hanafiy faqihi Alovuddin Kosoniy va Ahmad ibn Yusuf Alaviy Husayniylardan fiqh ilmini o'rgangani ma'lum. Jamoliddin G'aznaviyning hayoti haqida ko'p ma'lumot saqlanib qolmagan. G'aznaviy 593/1197 yilda Halab shahrida vafot etgan.

Kalit so'zlar: "Usul ad-din", Abu Abbos Imaduddin Hasaniy, aqida va kalom, usul al-fiqh, "Al-muqoddima al-G'aznaviy".

Abstract: Many scholars contributed to the wide dissemination of the Maturidiyya doctrine beyond the region of Transoxiana. Jamal al-Din Ahmad al-Ghaznawi is considered one of the most prominent among them. The exact year of his birth is unknown. He lived and carried out his scholarly activities in the region of Khurasan and was widely known by the honorific title *Tāj al-Ḥanafī*. Among his notable works are *Uṣūl al-Dīn* (Principles of Religion) and *'Aqā'id al-Ghaznawī* (The Ghaznawī Creed).

Jamal al-Din Ahmad al-Ghaznawi was regarded in his time as one of the leading Hanafī scholars in the fields of fiqh and *uṣūl al-fiqh*. It is known that he studied jurisprudence under the renowned Hanafī jurists *'Alā' al-Dīn al-Kāsānī* and Ahmad ibn Yusuf al-'Alawī al-Ḥusaynī. Limited information about his life has survived. Al-Ghaznawi passed away in 593/1197 in the city of Aleppo.

Keywords: *Uṣūl al-Dīn*; Abu al-'Abbās 'Imād al-Dīn al-Ḥasanī; creed and kalām; *uṣūl al-fiqh*; *al-Muqaddima al-Ghaznawiyya*.

Moturidiya ta'limotining Movarounnahrda tashqarida keng yoyilishiga ko'plab olimlar xizmat qilganlar. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy shunday olimlarning mashhurlaridan sanaladi. Tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Bu zot Huroson o'lkasida yashab faoliyat olib borgan. "Toj al-Hanafiyy" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Usul ad-din" (din asoslari), "Aqoid al-G'aznaviy" (G'aznaviy aqidalari) kabi asarlari bor. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy o'z davrida usul al-fiqh bobida hanafiylarning yetakchi olimlaridan sanalgan. Mashhur hanafiy faqihi Alovuddin Kosoniy va Ahmad ibn



Yusuf Alaviy Husayniylardan fiqh ilmini o'rgangani ma'lum. U hanafiy usul fiqhi olimi, ahli sunna val-jamoa mazhabiga, shuningdek, Abu Mansur Moturidiy yo'lga ergashuvchi mutakallimdir.

G'aznaviy she'riyat bilan ham shug'ullangan va Halabda istiqomat qilgan. U yerda o'zining ustozlari imom Alouddin Kosoniy ("Badoi' as-Sano'i" kitobi muallifi) davrida Nuriya madrasasida mudarris bo'lib faoliyat yuritgan. Jamoliddin G'aznaviyning hayoti haqida ko'p ma'lumot saqlanib qolmagan. G'aznaviy 593/1197- yilda Halab shahrida vafot etgan⁷².

Tarixchilarning fikricha, hijriy VI asr o'zining siyosiy va ijtimoiy ta'sirini butun dunyo bo'ylab kengaytirgan Abbosiylar sulolasi oxirining boshlanishi hisoblanadi. Rivojlanish davrida islom sharqda Xitoy chegaralariga, g'arbda Fransiya darvozalariga keng yoyilgan.

Bu asr ham islom xalqi boshidan o'tkazgan og'ir va mushkul tarixiy davrlardan biri sanaladi va shuning uchun tarixchi va tadqiqotchilar uchun o'sha davrning batafsil tarixini ilmiy va adabiylikni aniqlash qiyin bo'lib qoldi. Bu mamlakat zaminidagi siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ko'p ilmiy va siyosiy bilimlar yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi⁷³.

Ayrim hududlar davlatdan mustaqillikka erishdi va o'z siyosiy va harbiy ta'sirini kengaytirib, o'z hukmronligini o'rnatishga qodir bo'lgan kichik davlatlar vujudga keldi.

Abbosiylar sulolasining shimoli-sharqida G'aznaviylar davlati paydo bo'lib, taxminan bir asr davom etdi va uning ta'siri: Afg'onistonning katta qismi, Panjob, Hindiston va Lahorga, u yerdan esa Isfahon va Samarqandga yetdi⁷⁴.

Keyin G'aznaviylar davlati xarobalarida yana bir davlat paydo bo'ldi, bu G'uriylar davlati bo'lib, G'aznob davlati mulklarini nazorat qilgan. Uning ta'siri kengayib, butun Sindni qamrab oldi.

Keyin navbat saljuqiy turklariga yetib keldi, ular Rukniddin Abu Tolib Tug'ul (429-522/1038-1128) qo'lida Saljuqiylar davlatini barpo etdilar.

Ko'p muammolarga qaramay, tarixchilar bu mamlakatlarning ham, ulardan oldingilarning ham o'sha davrning madaniy va shahar rivojlanishiga hissa qo'shganligini tan olishadi.

Bu masala intellektual hayotga ta'siri tufayli olimlarning ilmiy va ijtimoiy hayotida o'z aksini topdi. Muallif davridagi ijtimoiy hayotga to'xtalishdan oldin G'aznaviylar davlatining keyingi davrlarga ko'rsatgan foydali ta'sirini ta'kidlash o'rinlidir.

⁷² Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. al-Havil al-al-qudsiy fi al-furu. – Livan: Dor an-Navodir, 2006. – B. 3; Kamoliddin ibn Adim. Bug'yat at-tolib fi tarixi Halab. – Bayrut: Dor al-fikr, 1992. – B. 1126.

⁷³ Shihabuddin Abdurrohman ibn Ismoil Maqdisiy. Tarojim rijal al-Qomayn. – Bayrut: Dor al-Jiyl, 1974. – B. 243.

⁷⁴ Stenli Leyn Pol. Tabaqot salatin al-islam. – Bag'dod: Dor al-manshurot al-basriy, 1968. – B. 64-268.



Gʻaznaviylar davlatining asoschisi Sabuktegin Xuroson (Afgʻoniston), Seyiston va Hindukush togʻlaridan tashqarida islomiy istilolar olib borib, hatto Hindiston yarimorolini ham qamrab oldi.

Sabukteginidan keyin podshoh boʻlgan Sulton Mahmud Gʻaznaviy oʻzidan oldingi podshohning yondashuviga ergashdi. U Somoniylarning Xuroson va Movarounnahrda hukmronligini meros qilib oldi va uning hukmronligi Qazvin viloyatidan tashqariga chiqdi va Gʻazna va Hirot oʻrtasidagi Gʻur yerlarini oʻziga boʻysundirdi va bu hududlarda islomni keng miqyosda tarqatdi. Islom dinini va uning taʼlimotini shuhrati hamma yoqqa tarqalgunga qadar urush eʼlon qildi. Bu davlat (Saljuqiylardan tashqari) (408/1017) yilda tugatildi.

Olim davri Fotimiylar davlati hukmronligining bir qismiga ham guvoh boʻlgan, uning taʼsiri 567/1171-yilgacha davom etgan. Shuningdek, Marokash va Andalusiyada (448-541/1056-1146) yillar oraligʻida Murobitlar va undan keyin esa Ayyubiylar davlatida ham yashagan.

Muallif davridagi siyosiy hayot ijtimoiy hayotda oʻz aksini topdi, davlatni vayron qilgan urushlar tartibsizlik va beqarorlikka olib keldi, bu esa muxoliflar oʻrtasidagi murosasiz va qabilaviy toʻqnashuvlardan kelib chiqadigan nizolar paydo boʻlishiga olib keldi, yuzaga kelgan salib yurishlari ijtimoiy hayotni charchatib yubordi, ichki xavfsizlik va barqarorlikka tahdid soldi⁷⁵.

Boshqa tomondan, oʻtgan davrlarda hukmdorlar va sultonlar qoʻlida islom istilolarining kengayishi koʻp sonli turli millatlar, shuningdek, irqalar, dinlar va guruhlarining mavjudligiga olib keldi, bu esa keyinchalik uning taʼsirini koʻrsatdi. Ayrim ahli kitob, yahudiy va nasroniylarning fikr-mulohazalari taʼsirida boʻlgan, davlat nazorati ostida yashagan ichki siyosiy guruhlarda ham taʼsirchan omil boʻlib, jamiyatga shafqatsiz harakatlar bilan tahdid qilgan ichki siyosiy guruhlar paydo boʻldi, talonchilik, qotillik, davlat va xususiy mulkni bostirish kabilar, masalan, qarmatiylar Fotimiylar davrida Qora toshni egallab, odamlarning qalbiga dahshat uygʻotishdi.

Bu davrni iqtisodiy farovonlik deb taʼriflash qiyin, bu koʻpchilik mintaqalarda hayotning soddaligidan dalolat beradi. Shunga qaramay, sultonlar va hukmdorlar qasr va saroylar qurishdan tashqari, ilmiy munozaralar oʻtkazishda, shaharsozlik, jumladan, masjidlar qurish, ilmiy va diniy maktablar, maxsus fan uylari tashkil etishga eʼtibor berganlar.

Bu davrda hukmdorlar va sultonlar tomonidan olib borilgan ichki va tashqi urushlar ilm-fan va sivilizatsiya kengayishiga toʻsqinlik qila olmadi. Gʻaznaviylar va Gʻuriylar davlatlarining ilmiy, adabiy va diniy jihatdan taʼsirini tahlil etilsa, shahzodalarning ilm-fan va madaniyat ravnaqini ragʻbatlantirishga qiziqishi qanchalik koʻpligini koʻrish mumkin.

⁷⁵ Stenli Leyn Pol. Tabaqot salatin al-islam. — Bagʻdod: Dor al- manshurot al-basriy, 1968. — B. 271; Dr. Fayd Ashhur. Salib yurishlarida musulmon jihodi. — Bayrut, 2017. — B. 260.



U Shayx Jamoliddin Ahmad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Said ibn Nuh bo'lib, unga G'azna⁷⁶ shahri nomidan G'aznaviy, hanafiylik vakili sifatida Hanafiy laqabini qo'yishgan.

Uning tug'ilgan sanasiga to'xtalinilsa, manbalarda sanasi aytilmagan. Shuningdek, uning oilasi haqida ham ma'lumotlar mavjud emas. Hattoki manbalardan uning yoshligidagi hayoti va voyaga yetishi borasida biror narsa topilmagan. Bunga o'sha paytda Halab shahrida sodir bo'lgan zilzila olim tarjimaiyoli holi bilan bog'liq qolgan manbalarni ham yo'q qilgan bo'lishi, muallifga tegishli qo'lyozmalarning qolgan nusxalariga ham ta'sirini o'tkazgan bo'lishi mumkin.

Ustozlari. G'aznaviy bir qancha olimlardan fiqhdan saboq olgan, xususan:

F-Ahmad ibn Yusuf Husayniy Alaviy⁷⁷.

G-Alouddin Samarqandiy⁷⁸.

H-Abu Bakr Mas'ud ibn Ahmad Kosoniy⁷⁹ (Koshoniy deb ham aytilgan) (vaf: 587/1191) usul bo'yicha faqih bo'lgan.

Mashhur hanafiy faqihi Alouddin Kosoniy va Ahmad ibn Yusuf Alaviy Husayniydan fiqh darslari olgani manbalarda keltirilgan. Qurashiy o'zining "al-Javohir al-muzyiya" asarida G'aznaviyning Ahmad ibn Yusuf Alaviy Husayniydan fiqh darslari olganini aytgan⁸⁰.

Ko'plab tabaqat va tarojim kitoblaridagi ma'lumotlarga ko'ra, G'aznaviy imom Kosoniydan saboq olish baxtiga muyassar bo'lgan. Manbalarda Kosoniyning asosiy shogirdlari va yordamchilari Jamoliddin Ahmad ibn Muhammad G'aznaviy va Kosoniyning o'g'li Mahmud Kosoniy bo'lganligi qayd etilgan. Jamoliddin G'aznaviy ham Alouddin Samarqandiydan ham saboq olgan.

U ustozlari Kosoniy bilan birga ko'plab shogirdlarga saboq berib, hanafiy faqihlarining boshlig'i darajasiga yetgan⁸¹.

Tabaqot va tarojim manbalarida uning shogirdlari soni ko'rsatilmagan, ammo ular orasida eng ko'zga ko'ringanlaridan biri qayd etilgan:

Ahmad ibn Yusuf ibn Ali ibn Muhammad ibn Ahmad Abu Nasr (560-648/1162-1250). Bu insonni Abu Abbos Imaduddin Hasaniy deyilgan.

Kamoliddin ibn Humom o'zining otasi G'aznaviyning yaxshi so'zlar bilan maqtashini aytadi. Uning ilmiy suhbatidan va undan o'qishdan foyda ko'rganlar orasida, Halabda

⁷⁶ Uni "g'ozniy" deb talaffuz qilib, shunday yozadiganlar ham bor. Yoqut al-Hamaviy "G'azna" deb aytgan: U Xurosonning atrofidagi ulug' bir shahar va keng davlat, Xuroson va Hindiston o'rtasidagi chegara shahar bo'lgan. Son-sanoqsiz olimlar bu shahar haqida din ahli yashab, shariat va salaf ahlini mahkam tutganlar deb aytganlar.

⁷⁷ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usuli-d-din. – Bayrut: Dor al-bashar al-islomiyya, 1998. – B. 36.

⁷⁸ A'zamxon Qambarov. Analysis of the research conducted on the study of the scientific heritage of Abu Bakr al-Kasani and identification of his students // – Italy: 2024.

⁷⁹ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usuli-d-din. – Bayrut: Dor al-bashar al-islomiyya, 1998. – B. 36.

⁸⁰ Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII – B. 486-487.

⁸¹ A'zamxon Qambarov. Analysis of the research conducted on the study of the scientific heritage of Abu Bakr al-Kasani and identification of his students // – Italy: 2024.

istiqomat qilgan faqih Imoduddin Abul Abbos Ahmad ibn Yusuf Hasaniy ham bor edi⁸². U Halabda tug'ilgan, G'aznaviydan saboq olgan va hadisni hanafiy mazhabining shayxi Abu Hoshim Abdulmuttalib ibn Fadl Hoshimiydan eshitgan. 640/1242-yili mo'g'ullar Rim davlatiga bostirib kirganida Abu Abbos Imaduddin Hasaniy Halabdan Misrga jo'nab ketadi va mo'g'ullar Misrga ham zarar yetkazdi. So'ngra Halabga qaytib keldilar, bir necha oy 648/1250-yili vafotlariga qadar hibsda, sabr bilan Halab diyorida istiqomat qildilar⁸³.

G'aznaviy hanafiy mazhabida bo'lib, uning biz ilgari tilga olgan "Muqaddima"si olimlar va tarixchilarning bu boradagi yakdil fikrlariga qo'shimcha ravishda shu masalaga dalolat qiladi:

"G'aznaviy muqaddimasi shunday tuzilgan: (birinchi bob ilm talab qilish haqida va ushbu bobda 4 bo'lim bor. Bo'limlardan birida Imom Abu Hanifaning xizmatlari haqida... va hokazo⁸⁴).

U fazilatli faqih bo'lib, Imom Abu Hanifaning izdoshlari safidan edi. U Halab shahrida bir muddat yashab, u yerda "al-Madrasa an-Nuriyya al-ma'rufa bil Halaviyyin" deb atalgan madrasada ta'lim bergan. U fiqh va uning ilmlari bo'yicha chiroyli asarlar yozgan⁸⁵.

G'aznaviy "al-Havil al-al-qudsiy" asarida zarurat bo'lmasa, imom Abu Hanifaning fatvolaridan voz kechish mumkin emasligini bildirgan. Uning fikricha, agar imom Abu Hanifa bilan birga "Imomayn" ya'ni Abu Yusuf va Muhammad Shayboniy imomlaridan biri ham shu fikrda bo'lsa, o'sha qarash ustun qo'yilishi kerak.

Agar bir masalada Abu Hanifadan rivoyat bo'lmasa, avval Abu Yusufning, so'ngra Muhammad Shayboniyni, undan keyin esa Zufar va Hasan ibn Ziyodning fikrlari afzal qo'yiladi. Bu uslub, mazhabdagi imomlarning ilmiy maqomlariga ko'ra tuzilgan. Shuningdek, G'aznaviy bayon qilishicha, agar bir masalada to'rt asosiy imomdan hech birining qarashi topilmasa, unda keyingi davr ulamolarining fikrlariga murojaat qilinadi, agar ular ham turlicha fikr bildirgan bo'lsa, u holda ko'pchilikning fikri ustun qo'yiladi⁸⁶.

G'aznaviy moturidiylik vakili bo'lgan va bu uning yozgan kitoblaridagi fikrlarida ochiq-oydin bayon etilgan. Uning yozgan asarlarida moturidiylik ta'limotiga doir fikrlar mavjud. Asarlaridagi fikrlar va qarashlari orqali olimni moturidiylik vakili sifatida fikr bildirish mumkin.

G'aznaviy fiqh va usul olimi, aqiyda masalalari va kalom ilmida mohir sanaladi va bu uning asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ulardan usul al-fiqh ilmi bo'yicha yozilgan asarlar:

⁸² Kamoliddin ibn Adim. Bug'yat at-tolib fi tarixi Halab. – Bayrut: Dor al-fikr, 1992. – B. 1126.

⁸³ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usuli-d-din. – Bayrut: Dor al bashar al-Islomiyya, 1998. – B. 38.

⁸⁴ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Al-muqoddimatul G'aznaviy. – Panjob: Al-amul jamiiy, 1997. – B. 10.

⁸⁵ Kamoliddin ibn Adim. Bug'yat at-tolib fi tarixi Halab. – Bayrut: Dor al-fikr, 1992. – B. 1126.

⁸⁶ Huseyin Okur. Hanefi mezhebinde "Tercih" kavramı ve Şürünbülâli'nin bazı tercihleri // Kocaeli ilahiyat dergisi, 2017. – B. 41-62.

1. “Rovzat al-ixtilaf al-ulamo⁸⁷”.

Olim bu asarda olimlar o‘rtasidagi o‘zaro ixtilof masalalarini yoritgan.

2. “Usul al-fiqh⁸⁸”.

Ushbu asar usul al-fiqh ilmi bo‘yicha yozilgan asar hisoblanadi.

3. ”Muqoddima al-G‘aznaviyya fi al-furu’ al-Hanafiyya”.

Bu fiqhga oid mashhur asar bo‘lib, muallifning nomi bilan tanilgan. Shayx Xalil Muhyiddin Mays (Livanning Baqa mintaqasi muftiysi va Livan Azhar instituti direktori) tomonidan 1404/1984-yilda nashrga tayyorlangan va Dor al fikr, Bayrut (Livan) tomonidan chop etilgan. Abdulhayy al-Laknaviyning “Al-favoid al-bahiyya” asarida aytiladi: “Men uning asaridan “Muqaddima” ni o‘qib chiqdim, uning hajmi qisqa lekin ilmi ulug‘dir. Unda: “Hamd Allohgadir, u o‘z ne‘matlari bilan yurtlarni to‘ldirdi...” deb boshlanadi⁸⁹”.

Ushbu asar ibodatlarga oid sakkiz bobdan iborat qo‘llanma bo‘lib, Sulaymoniya kutubxonasida salkam 30 ga yaqin nusxasi mavjud. Bu asarga “ibnuz Ziyo” nomi bilan tanilgan Abul Baqo Muhammad ibn Ahmad Qurashiy “az-Ziyo al-ma‘naviy ala Muqaddima al-G‘aznaviy” nomli, Abu Bakr Sayful Haq ibn Muslihuddin Bosnaviy Travnikiy esa “Nurul nabaviy” nomli sharhlar yozgan⁹⁰.

Furu’ al-fiqh ilmi bo‘yicha yozilgan asarlar:

1. “al-Havil al-qudsiy fi al-furu’⁹¹”.

“Al-Havil al-qudsiy” – Quddusda yozilgan bo‘lib, fiqhga oid asar hisoblanadi. U uch qismdan iborat: birinchi qism kalomga, ikkinchisi usul al-fiqhga oid ayrim ma’lumotlarga bag‘ishlangan. Juda qisqa bo‘lgan bu ikki qismdan so‘ng fiqhiy masalalarni qamrab olgan uchinchi qism umumiy fiqh kitoblari tartibida tuzilgan. Asarning Sulaymoniya kutubxonasida bir nechta qo‘lyozma nusxalari mavjud⁹².

Muallifning ushbu asari hanafiy fiqhining far‘iy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Qozi G‘aznaviy o‘z kitobini “al-Havil al-qudsiy fi al-furu’” deb “Muqaddas yurt” (Baytul Maqdis) nomiga nisbat bergan. Bu kitob doktor Solih Ali tomonidan tahqiq etilgan va birinchi nashri 1432/2011-yilda nashrga tayyorlangan. U shariat va iqtisod fakultetida islom iqtisodi va maorifi bo‘yicha professordir. Suriya, Livan va Quvaytda ushbu kitob bosmadan chiqqan⁹³.

Kitob tahqiqini amalga oshirgan doktor Solih Ali kitobning muqaddima qismini hamd va salavot bilan boshlaydi va quyidagilarni bayon etadi:

⁸⁷ Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy. Toj at-tarajim fi tabaqot al-hanafiya. – Bayrut: Dor al-qolam, 1992. – B. 21.

⁸⁸ Ahmad ibn Mustafo. Miftah as-saada va misbah as-siyada. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1985. – B. 258.

⁸⁹ Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy. Toj at-tarajim. – Bayrut: Dor al qolam, 1992. – B. 21.

⁹⁰ Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII. – B. 486-487.

⁹¹ Ismoil Posho Bag‘dodiy. Hadiyyat al-arifin. – Bayrut: Dor al ihya at-turosi al-arobiy, 1951. – B. 89.

⁹² Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII. – B. 486-487.

⁹³ Jamoliddin Ahmad G‘aznaviy. al-Havil al-al-qudsiy fi al-furu’. – Livan: Dor an-navodir, 2006. – B. 2.



“Allohni va uning sifatlarini bilishdan keying eng sharaflı ilm bu fiqh ilmidir. Bu ilm “halol va harom, shariat va hukmlar ilmi” deb ataladi. Rasullar bu ilmni targ‘ib qilish uchun yuborilgan va kitoblar uning asosida tushirilgan.

Alloh taolo aytadi: “U kimni xohlasa, o‘shanga hikmatni berar. Kimga hikmat berilsa, unga ko‘p yaxshilik berilgan bo‘lar. Faqat aql egalarigina eslarlar⁹⁴. (Baqara, 269). Ba’zi tafsirlarga ko‘ra, bu “fiqh ilmi” deb talqin qilingan.

Alloh taolo bu to‘g‘ri dinni, ya’ni Islomni, ilimli olimlar orqali yuksaltirdi. Ular Allohning shariatini to‘g‘ri tushunib, bizga halol va haromni, haqni va botilni aytib berdilar. Ulardan biri – imom Jaloliddin Ahmad ibn Muhammad G‘aznaviy Hanafiy bo‘lib, u ushbu buyuk dinni targ‘ib qilishga o‘zini bag‘ishlab, fiqh, usul va aqida sohalarida ko‘plab muhim asarlar yozgan. Ularning eng muhimlaridan biri–“al-Havil al-qudsiy fi al-furu” nomli asaridir.

Bu kitob “Al-qudsiy” deb ataladi, chunki u Quddus shahrida yozilgan. Kitob uch bo‘limdan iborat:

Birinchi bo‘limda dinning asoslari (usul ad-din) haqida so‘z yuritiladi va unda ilm, imon, payg‘ambarlar haqida ma’lumot beriladi.

Ikkinchi bo‘limda usul al-fiqh haqida so‘z boradi, bunda dalillar va ularning turlari, shariatning dalillari, ijthodchilar, sabablari va ba’zi boshqa masalalar muhokama qilinadi.

Uchinchisi esa hukmlar (furu’ al-fiqh) bo‘lib, u fiqhiy mavzularni bo‘limlarga, kitoblar va fasllarga ajratib, har birini alohida ko‘rib chiqadi. Bu bo‘limda tahorat, najosat, tayammum, g‘usl, hayz, nifos va istihoza, maxsi va taxtakachga masx tortishga bog‘liq masalalar yoritiladi.

So‘ngra u namoz kitobi haqida so‘z yuritadi va unda namozning vaqtlari, uning to‘g‘riligini ta’minlovchi shartlari, rukunlari, sifati, buzilish sabablari, turlari va boshqa muhim masalalarni keltiradi.

Keyin zakot, xiroj (soliq) kitobini, shuningdek, ro‘zadorlik va haj masalalarini batafsil bayon qilgan, ularning mohiyati, shartlari, ruknlari va boshqa muhim masalalari haqida so‘z yuritdi.

Shuningdek, u nikoh, taloq, qul ozod qilish, qasamlar, vasiyat va savdo kabi masalalarni, mulkni sotish va sotib olish, shartnoma va bitimlar bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi masalalarni muhokama qiladi. Bundan tashqari, yo‘qolgan mol-mulk, da’vo va dalillarni tasdiqlash usullari (tan olish va guvohlik), harom va halolni farqlash, ov qilish, qurbonlik va ichimliklar, jazolar va jinoyatlar, safar va vasiyatlar kitoblari haqida ham so‘z yuritadi. Shuningdek, meros kitobini ham keltiradi. Kitob yakunida esa jumboqlarga oid ba’zi masalalarni o‘rganib chiqadi.

Kitob muallifi fiqhni bayon etishda asosan fiqh olimlarining kitoblarida keltirilgan barcha muhim mavzularni qamrab olganini, shariat hukmlarini tushuntirib, ularning dalillarini va fikrlaridagi farqlarni bayon etganini ko‘rish mumkin. Ba’zi fiqhiy

⁹⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent: Munir, 2021. – B. 40.



iboralar aniq va oson tushunarli bo'lsa, boshqalari esa murakkabroq va qiyinroq iboralarga ega⁹⁵.

2. “an-Natfu fi al-fatava”⁹⁶

Fiqhiy fatvolarga oid asar hisoblanadi.

2. Ahadis al-ahkam⁹⁷.

Aqoid ilmi bo'yicha yozgan asarlari:

1. “Ravzat al-mutakallimin fi usuli-d-din”⁹⁸.

Ushbu asar “Usul ad-din” nomi bilan mashhur bo'lgan. Jamoliddin Ahmad G'aznaviyning “Usul ad-din” asari islom aqidasiiga doir kitoblar mavjud kutubxonalar kitoblaridagi muhim bo'shliqni to'ldiradi. Shuni ta'kidlash joizki, Jamoliddin Ahmad G'aznaviyning ushbu kitobi olimlar uchun manba va talabalarga muhim qoidalarni o'rgatuvchi asar sifatida qaraladi⁹⁹.

2. “al-Muntaqo min ravza al-mutakallimin”¹⁰⁰.

Ushbu asar “Ravza al-mutakallimin fi usul ad-din” asarining qisqartirilgan shakli bo'lib, ko'plab olimlar bu borada fikr bildirib, qisqartma ekaniga ishora qilganlar.

“al-Muntaqo min ravza al-mutakallimin” – bu asar mavjudligi manbalarda tilga olinadi, ammo bizgacha yetib kelgan yoki yo'qligi noma'lum. Bu, “Ravza al-mutakallimin fi usul ad-din” nomli asarning muxtasari bo'lib, kalomga oiddir¹⁰¹.

3. “Aqoid al-G'aznaviy”¹⁰².

Aqoid al-G'aznaviy asari bitta nusxasi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxa Abu Hanifaning “Kitob fiqh al-akbar”i, Abu Jafar Tahoviy va Abu Hafs Nasafiyning aqida risolalari bilan bir to'plamda joylashgan¹⁰³.

G'aznaviyning bu asarlari fiqh, usul, aqida sohalaridagi ulkan ilmiy merosni yoritib beradi.

Xulosa sifatida aytish o'rinliki, XII asrda yashab ijod qilgan olimlar orasida Jamoliddin Ahmad G'aznaviy alohida o'rin tutadi. Uning ilmiy faoliyati o'sha davr ilmiy maktablari va ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamining ilmiy rivojiga munosib hissa qo'shgan. O'z davrining yetuk mutafakkiri bo'lib, uning asarlari ijtimoiy hayot, aqida va fiqh masalalariga bag'ishlangan. Uning ilmiy merosi XII asr ilmiy an'alarini chuqur o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

⁹⁵ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. al-Havil al-qudsiy fi al-furu. – Livan: Dor an-Navodir, 2006. – B. 3-4.

⁹⁶ Ismoil Posho Bag'dodiy. Hadiyyatularifin. – Bayrut: Dor al ihya at-turosi al-arobiy, 1951. – B. 89.

⁹⁷ Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII. – B. 486-487.

⁹⁸ Ahmad ibn Mustafo. Miftah as-saada va misbah as-siyada. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1985. – B. 258.

⁹⁹ Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usuli-d-din. – Bayrut: Dor al-bashar al-islomiyya, 1998. – B. 47.

¹⁰⁰ Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug'o Suduniy. Toj at-tarajim. – Bayrut: Dor al-qolam, 1992. – B. 21.

¹⁰¹ Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII. – B. 486-487.

¹⁰² Ismoil Posho Bag'dodiy. Hadiyyatularifin. – Bayrut: Dor al ihya at-turosi al-arobiy, 1951. – B. 89.

¹⁰³ Ahmet Akgunduz. Gaznevi, Ahmed b. Muhammed // Turkiye Diyanet Vakfi islam ansiklopediyasi, 1996. J. XIII. – B. 486-487.



Tabaqot va tarojim manbalarida muallif haqida ko'p ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Bunga sabab sifatida o'sha paytda Halab shahrida sodir bo'lgan zilzila aytib o'tiladi. Zilzila olim tarjimayi holi bilan bog'liq qolgan manbalar va muallifga tegishli qo'lyozmalarning qolgan nusxalariga ham ta'sirini o'tkazgan bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usul ad-din. – Bayrut: Darul bashar islomiyya, 1998. -366b.
2. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Al-muqoddimatul G'aznaviy. – Panjob: Al-amul jamiy, 1997. -294b.
3. Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug'o Suduniy. Toj at-tarojim. – Bayrut :Darul qolam, 1992. -568b.
4. Ahmad ibn Mustafo. Miftah as-saada va misbah as-siyada. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1985. -734b.
5. Ismoil Posho Bag'dodiy. Hadiyyatul Arifin. – Bayrut: Daru ihya at-turosi al-arobiy, 1951. -164b.
6. Shihabuddin Abdurrohman ibn Ismoil al-Maqdisiy. Tarojim rijal al-Qornayn. – Bayrut: Darul jiyl, 1974. -243b.
7. Stenli Leyn Pol. Tabaqot salat in al-islam. – Bag'dod: Daru manshurot al-Basriy, 1968. -372b.
8. Dr. Fayd Ashhur. Salib yurishlarida musulmon jihodi. – Bayrut, 2017. B.260.

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. <https://moturidiy.uz/oz/news/549>
2. <https://www.muslim.uz/uz/e/post/17309>